

# “IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-nazariy anjumani

## O’TKIR HOSHIMOVNING „DUNYONING ISHLARI” QISSASIDAGI „XIYONAT” HIKOYASI HAQIDA

**Tilakova Shaxzoda Ilyosovna**  
*Osiyo Xalqaro universiteti 4-FT(o’)-24 talabasi*

*Ustozi: Gulamova Dilobar Imamkulovna*  
*„Pedagogika va psixologiya” kafedrasida assistenti*

**Annatsiya:** Ushbu maqola O’tkir Hoshimovning „Dunyoning ishlari” qissasi butun dunyo onalariga bag’ishlanadi. Undagi „Xiyonat” hikoyasi ham aslida biz uchun faqat onamiz sadoqatli bo’lishi va aynan onamiz beminat mehr berib, bizni to’g’ri yo’lga yo’naltiradigan zot ekanligi aks ettirilgan.

**Kalit so’zlar:** Xiyonat, do’stlik, sevgi, g’urur, ona.

**Annotation:** O’tkir Hashimov’s short story “Works of the World” is dedicated to the mothers of the whole world. The story of “Betrayal” in it is actually reflected that only our mother is loyal to us and that it is our mother who gives unconditional love and guides us on the right path.

**Key words:** Betrayal, friendship, love, pride, mother.

**Аннотация:** Рассказ Уткира Хашимова «Труды мира» посвящен матерям всего мира. История «Предательства» в ней на самом деле отражена в том, что только наша мать верна нам и что именно наша мать дарит безусловную любовь и направляет нас на правильный путь.

**Ключевые слова:** Предательство, дружба, любовь, гордость, мать.

Xiyonat...inson qalbini sindiradigan va og’riqlarga ko’madigan bir tuyg’u... Bilasizmi xiyonatni kimlar qiladi, yuragingizga eng yaqin insonlar qiladi. Do’stim, yaqinim, sevganim-ku, unday qilmaydi deb o’ylaysiz, lek hamma og’riqlarni, hatto xiyonatni ham eng yaqiningizdan kuting, qiyomatligimsan, sani sevaman degan insondan kuting...

Do’stingiz, dugonangiz bo’lsa, uyingizda bo’layotgan kelishmovchiliklarni, sizni qiynagan savollarni, har on qalbingizni qonatib yig’lashga majbur qiladigan hislarni aytasangiz bo’ladi, lek o’sha yaqinim deb bilgan insoningiz sizni tinglashga tayyormikan, siz unga qiziqmisiz, muhimmisiz?! Yo’q...siz yig’lab dardizni aytasiz u esa mensimaydi, kuladi, „men senga nima degandim” deydi, xuddi dunyoning hamma mo’jizaviy baxti unda boru, faqat siz baxtsizdek; go’yo hamma boshingizdan o’tganlarini bilib turgansizu, lek yana o’shalarni amalga oshirgandeksiz, hamma oppoq siz qorasiz. Nega, nega axir, insonlar mana shunday manmanlikni qachon yo’qotishadi, qachon iliq munosabatga o’tishadi..?

Sevganmisiz? Agar sevib qolgan bo’lsangiz, o’tiring-da tinchlanib oling va qotilingiz bilan tanishib oling. Chunki, o’sha sizga baxtni va’da qilgan inson har bir

# “IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-nazariy anjumani

aytgan qalbingizga yoqqan shirin so’zlarini burningizdan buloq qiladi, ishonavering. Sizga nisbatan bee’tibor bo’lgani yetmaganidek xiyonat ham qiladi subitsiz, nomard. Ey Allohim, bunga vijdoni, u bilan birga o’tgan xotiralari qanday yo’l qo’yar ekan...Sizningcha, ketganga osonmi yoki qolganmi!? Albatta ketganga, ketgan odamning boshqa maqsadi bor, boshqa yo’li hamda pastkashlarcha tanlagan bosha insoni bor. Qolgan insonning qo’lidan nima keladi, sevadi, bor vujudi bilan sevadi, lek sevilmaydi, shunda bir nuqtaga qaraguncha o’z yog’ida o’zi qovuriladi. O’sha holatda ham sevgan insonidan nafratlanolmaydi. Ha sevgi shunday tuyg’u, insonni bamisoli majruh telbaga aylantirib qo’yadi. Ayol sevsa, o’ziga achinmaydi, agar sevmay qolsa o’zgaga. Ikki qalbni bir-biriga qalban yaqin qilgan bunday pok tuyg’uga g’ururni aslo aralashtirib bo’lmaydi, aralashtimi samimiylik, iliqlik yo’qoladi. Orada g’urur bilan hal qilingan qarorlar tufayli kelishmovchiliklar tug’ilaveradi va bu ikki qalbni bir-biridan uzoqlashtiradi. So’ngida yo qastaniga, yo qalb adolatsizligi tufayli xiyonatga yo’l qo’yiladi. Tushunmayman, bir insong qilgan iliq tabassumingizni, aytgan shirin so’zlaringizni qanday qilib boshqa insonga aytish mumkin?!..ehh.

“Xiyonat” hikoyasidagi qahramonimizning boshidan ham mana shunday adolatsizliklar o’tdi: do’stlari, yaqinlari, chin yurakdan suygan insoni tomonidan xiyonatga uchradi. Boshida yosh bola deb keyin ishonuvchanligi tufayli, so’ngida esa...uning o’rniga boshqa bir yigit yaxshiroq variant bo’ldi. Arzirmidi?! Aslida hech bir inson xiyonatga loyiqmas, tunlari bilan bedor bo’lib yig’lab chiqishga loyiq emas, qo’lini qonatganicha devor urishga, joni azobda qolishga loyiqmas. Birovning 18 yil, 20 yil hech kimga ishonmay o’stirgan farzandini bir zumda o’lik murdaga aylantirishga hech biringizning haqqingiz yo’q. Kim bo’libsizki, bir onaning bolasini xor qiladigan, bir kun shirin joningizga qaytishini o’ylamaysizmi?..

Asl haqiqat shundaki, ota-onangizdan bosha hech kimga keragingiz yo’q. U onangiz, iliq, mehr to’la bag’rida asrab yuradi, har doim sizni yaxshi tomonga yo’naltiradi, boshqalar esa har bir qilgan xatoyingizdan foydalanib ko’zingizdagi yoshga qaramay qalbingizga pichoq sanchishadi.

Ona, yuragimda similar og’riq,  
Hayot girdobida berayapman jon.  
Doim yaxshilikni o’yladim, biroq,  
Jajji qalbda lahta-lahta qon.  
Ezgu tuyg’ularim bo’lmoqda barbod,  
Asl, sof yurakka tushmoqda dog’lar.  
Insof-u vijdonni bozori kasod,

# “IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-nazariy anjumani

Ona, bu yashashda qolmaydi sog’lar.

”Onajon, nega hayot beshavqat” deb faryod chekkaningizda, boshingizni tizzasiga olib silagancha “sabr qil, bolam” deyuvchi va sizni matonatli qilib tarbiyalovchi ham onangdir...

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Hoshimov O‘. Yarim asr daftari. – Toshkent 2004.
2. Hoshimov O‘. Dunyoning ishlari.Qissa. – Toshkent.: O‘qituvchi. 2018.
3. Hoshimov,O‘.Tanlangan asarlar.2-jild. – Toshkent.:Sharq, 2009